BUXORO VILOYAT

STATISTIKA BOSHQARMASI

# BUXORO VILOTATINING
# SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2023- YIL YANVAR-MART

(DASTLABKI MAʼLUMOT)




Tel.: 65-223-80-42

www.buxstat.uz

## Buxoro viloyati
## sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6 216,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi* 103,3 % ni tashkil etdi.












*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tuman kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (115 683,7 ming so‘m), Kogon shahrida (3 868,9 ming so‘m) hamda Kogon tumani (4 152,2 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (3 087,7  ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.











## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 5 692,4 mlrd. so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 91,6 % ni tashkil etdi.




2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyatida jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Qorovulbozor tumanii (36,4 %), Buxoro shahri (11,7 %), G‘ijduvon tumani (10,9 %), Romitan tumani (7,1 %) hamda Kogon (5,5 %) tumani hissasiga tog‘ri keldi.

Shuningdek o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Jondor (112,8 %), Shofirkon (112,7 %), hamda Olot (112,3 %) tumanlarida kuzatildi.






## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash shahar va tumanlar kesimida

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 194,2 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 3,1 % ga to‘g‘ri keldi.











## Yanvar-mart oylarida yirik korxonalar bo‘yicha

*(O‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)*

### Oltingugurt

| | |
|---|---|
| 2023- yil | 45,0 |
| 2022- yil | 2,4 m. |
| 2021- yil | 58,2 |

### Gips

| | |
|---|---|
| 2023- yil | 425,8 |
| 2022- yil | - |
| 2021- yil | - |

### Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog‘liq burg‘ulash xizmatlari

| | |
|---|---|
| 2023- yil | 127,7 |
| 2022- yil | 107,2 |
| 2021- yil | 48,9 |

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-mart | 2023- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Oltingugurt, t. | 480,0 | 216,0 | -264,0 |
| Gips, t. | 39 520,0 | 168 286,0 | 128 766,0 |
| Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog‘liq burg‘ulash xizmatlari, mln. s‘om | 32 500,0 | 41 500,2 | 9 000,2 |

** tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarish hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra*

### Ishlab chiqaradigan sanoat shahar va tumanlar kesimida

2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 692,4 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 102,9 % ini tashkil etdi.











## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*(O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)*




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 2,2 % (1,5 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 41,8 % (46,7 %) va quyi texnologiyalisida – 56,0 % (51,8 %) kuzatildi.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 33,3 % (2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm i ndeksi – 109,2 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 31,3 % (2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 108,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,3 % (2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi –105,5 %) ni tashkil etdi.

** tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarish hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*(O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)*

Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 3,2 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 62,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,9 % (2022- yilning yanvar-mart oyilarga nisbatan fizik hajm indeksi 106,1 %) ni tashkil etdi.




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 293,5 ming tonna avtomobil benzini (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 23,8 % ga ko‘paygan), 1 590,8 ming litr aroq mahsulotlari (14,1 % ga ko‘paygan) ishlab chiqarilgan.

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-mart | 2023- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Mazut, ming t. | 20,7 | 16,6 | -4,1 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), t | 2 623,0 | 733,0 | -1 890,0 |
| Paxta tolasi, t | 35 943,0 | 32 573,0 | -3 370,0 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t. | 20 588,4 | 8 572,6 | -12 015,8 |
| Paxta chigiti, t. | 50 246,0 | 52 591,0 | 2 345,0 |

** tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarish hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra*

## Metallurgiya sanoati






2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,4 % bo‘lib, fizik hajm indeksi esa, 7,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 27,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoatining ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 96,4 % ga oshgan.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish






2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,2 % bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 37,4 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 195,8 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi. 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 108,2 % ni tashkil etgan.

## Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlari ishlab chiqarish






2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,3 % bo‘lsa, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi 5,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 197,2 mlrd.so‘m kuzatildi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,7 % ga to‘g‘ri keldi.

## Mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish



2023- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqarishning ulushi 1,5 % ni bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 45,4 % ni a ishlab chiqarish hajmi 93,2 mlrd. so‘m ekanligi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ishlab chiqarishning ulushi 1,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 71,6 % ekanligi kuzatildi.




## To‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2023- yilning yanvar-mart oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 8,2 % ga oshdi bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmida 1 945,4 mlrd. so‘m kuzatildi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 107,5% ni tashkil etgan.




## Yog‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallar, qoq‘oz va qoq‘oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish



2023- yilning yanvar-mart oylarida qoq‘oz va qoq‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 31,3 %, fizik hajm indeksi 108,2 % ni, ishlab chiqarish hajmida esa 43,0 mlrd. so‘m kuzatildi. 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi es 97,8 % ga to‘g‘ri keldi.



## Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish






2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi 106,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 115,1 mlrd. soʻmni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni fizik hajm indeksida esa 83,5 % kuzatildi.

## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish






2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 33,3 % ni, fizik hajm indeksi 109,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 071,3 mlrd. soʻmga toʻgʻri keldi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 33,9 % ni fizik hajm indeksi esa 83,2 % ni tashkil etgan.

## Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish






2023- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga koʻra, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 113,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmida 0,8 mlrd. soʻm kuzatildi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni fizik hajm indeksi esa 48,2 % ga toʻgʻri kelgan.

## Elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash shahar va tumanlar kesimida

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 286,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,6 % ini) tashkil etgan.











## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-mart oylarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 98,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 90,1 %ni tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-mart | 2022- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 1,8 | 1,8 | - |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 366,9 | 330,7 | -36,2 |

*(O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)*



Elektroenergiya

Issiqlik energiyasi









** tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra*

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, shahar va tumanlar kesimida

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 42,9 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ga) to‘g‘ri keldi.











## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 28,0 % ga oshganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 22,0 % ga pasayishi kuzatildi.

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-mart | 2023- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm | 3 794,9 | 4 857,0 | 1 062,1 |
| Axlat o'ralarni, tindirgich-larni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm | 123,8 | 96,6 | -27,2 |

*(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)*




** tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra*

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 594,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-mart oylari mos davriga nisbatan 111,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 25,7 % ga to‘g‘ri keldi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari




2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyatida 976,7 mlrd. so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 13,7 % ga oshdi yetdi.

2022- yilning shu davriga nisbatan viloyat bo‘yicha o‘rtacha iste’mol tovarlari ishlab chiqarishda Qorovulbozor tumani (2,3 m.), Olot tumani (174,5 %), Kogon tumani (158,2 %) va Shofirkon tumani (129,5 %) korxonalari tomonidan yuqori o‘sish sur’ati kuzatildi.

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2023- yilning yanvar-mart oylarida iste’mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 61,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 38,7 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o‘sish sur’ati 113,7 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o‘sish sur’ati 107,8 % ga yetdi.



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tumanlar kesimida

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 792,1 ming so‘m bo‘lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 3 757,4 ming so‘mni, Kogon tumanida – 1 904,9 ming so‘mni, Buxoro shahrida – 1 319,2 ming so‘mni tashkil etdi.











## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tumanlar kesimida

Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahri to‘g‘ri kelib, (24,0 %) ni shuningdek, G‘ijduvon tumani (18,2 %) ni, Vobkent tumani (6,9 %) ni, Jondor tumani (6,8 %) ni tashkil etdi.










Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi



## Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi G'ijduvon tumani to'g'ri kelib, (26,1 %) ni shuningdek, Buxoro shahriga (24,2 %) ni, Vobkent tumani (13,0 %) ni, Qorovulbozor tumani (7,8 %) ni tashkil etdi.



## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to‘g‘ri kelib, (23,8 %) ni, G‘ijduvon tumani (13,1 %) ni, Kogon tumaniga esa (11,7 %) ni tashkil etdi.






## Viloyatda faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2023- yil 1- aprel holatiga koʻra)*

Bugungi kunda viloyatda 4 261 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 974 tasi faoliyat (koʻrsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,9 % i) Buxoro shahriga, 469 tasi (11,0 % i) Gʻijduvon tumaniga, 384 tasi (9,0 % i) Kogon tumaniga, 358 tasi (8,4 % i) Romitan tumaniga, 334 tasi (7,8 % i) Jondor tumaniga, 303 tasi (7,1 % i) Buxoro tumaniga toʻgri kelmoqda.











## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*(2023- yil yanvar-mart oylarida)*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 327,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,4 % ni tashkil etadigan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 35,4 % ni tashkil etgan.











## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori oʻsish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham oʻz ta’sirini koʻrsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 153 ta loyiha boʻyicha 774,0 mlrd. soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 6,0 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2022 yil yanvar - mart oylarida 53 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi, oʻtgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish oʻrinlari soni 28,6 % ni tashkil etdi.

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining asosiy koʻrsatkichlari

| | 2022- yil yanvar-mart | 2023- yil yanvar-mart |
|---|---|---|
| Loyihalar soni, birlik | 148 | 153 |
| Korxonalar soni, birlik | 134 | 137 |
| Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. soʻm | 420,1 | 774,0 |
| Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollar | 2,9 | 6,0 |
| Yaratilgan yangi ish oʻrinlari, birlik | 185 | 53 |